

SUN'IY INTELLEKTNING HAYOTIMIZGA TA'SIRI

Abduqodirov Umidjon Abdusalim o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda sun'iy intellektning zamonaviy jamiyat hayotiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologiyaning afzalliklari bilan birga ayrim muammolari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, katta ma'lumotlar, axborot texnologiyalari, jamiyat rivoji.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida sun'iy intellekt inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot, sanoat, transport, bank tizimi hamda kundalik hayot faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, murakkab jarayonlarni avtomatlashtirish hamda qaror qabul qilish jarayonini samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Shu sababli sun'iy intellektning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va uning inson hayotiga ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

XXI asr texnologiyalar davri bo'lib, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt kun sayin jadal rivojlanmoqda. Shunday ekan, sun'iy intellektni hayotimizga qanday ta'sir etayotganini va kelajakda qanday ta'sir etishi mumkin ekanini tahlil qilish juda dolzarb jarayon desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sun'iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson aqli bajaradigan vazifalarni, ya'ni o'rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini bajarish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlar XX asr o'rtalaridan beri qilinib kelinsa-da, unga nisbatan ommaviy qiziqish 2012-yilda sezilarlicha oshdi. Ma'lumotlarga ko'ra, Alan Turing sun'iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo'lgan. Sun'iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. 2020-yillar boshlarida

mazkur soha gurkirab rivojlanib, ko‘plab shirkatlar, universitetlar va laboratoriyalar sun‘iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishib kelishmoqda. Hozirga kelib esa sun‘iy intellekt juda ham takomillashrildi, unga yangi funksiyalar qo‘shildi. Bundan tashqari insoniyat hayotida xatto san‘at sohasida, iqtisod, tibbiyot, ta‘lim, arxitektura va shu kabi ko‘plab sohalarda sun‘iy intellektdan keng foydalanilmoqda. Bunga misol tariqasida sun‘iy intellekt 15 mingta san‘at asarlarini o‘rganib chiqib, o‘zining “Edmond de Belamy” portretini yaratganini va bu asar nufuzli auksion uyi bo‘lmish “Christie’s”da 432 ming dollarga sotilganini keltirishimiz mumkin. Yana bu kabi sun‘iy intellekt yutuqlarini hayotimizda ko‘p ko‘rishimiz mumkin. Hammamiz yaxshi bilamizki, sun‘iy intellekt eng ko‘p media sohasida foydalanilmoqda, u yordamida turli xil mavzudagi videolar, rasmlar, komikslar ishlanmoqda va bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi eng “trenddagi” mavzulardan biriga aylanib ulgurdi. Qisqa qilib aytganda, kun sayin sun‘iy intellektinga yangi qirralari kash qilinmoqda va bundan unumli foydalanilmoqda. Ammo, tanganing ikki tarafi bo‘lgani kabi sun‘iy intellektni ham inson hayotiga ikki xil yani yaxshi va yomon ta’sirlari mavjud. Yaxshi va ezgu maqsadli inson qo‘lida sun‘iy intellekt innovatsion loyihalar kaliti vazifasini bajaradi. Agar aksincha bo‘lsa, sun‘iy intellekt xavfli qurolga aylanishi tayin. Shu o‘rinda Rossiya prezidenti Vladimir Putinning o‘z nutqlaridan birida sun‘iy intellektga nisbatan bildirgan xulosasini keltirsak. U aytadiki: “Kim sun‘iy intellekt sohasida yetakchi bo‘lsa, dunyo hukumdori bo‘lishi mumkin”. Ana endi sun‘iy intellekt zararlarini haqida gapirsak. Hozirda sun‘iy intellektdan ba’zi bir insonlar o‘zlarining yomon ko‘rgan insonlarini obro‘yini to‘kish maqsadida ularning ovozi va sur‘atlaridan foydalangan holda turli xil rasmlar va videolar yaratishmoqda. Bundan tashqari sun‘iy intellekting insoniyat hayotiga keltirgan zararlaridan birini ta‘lim sohasida ham ko‘rish mumkin. O‘quvchi-talabalar mayda topshiriqlarni bajarish uchun ham, ilm olish yo‘lidagi mashaqqatni iloji boricha yengillatish maqsadida ham sun‘iy intellektdan foydalanishmoqda. Ular bu ishlari bilan o‘zlarining bilim darajasini rivojlantirishga o‘zlari to‘sqinlik qilmoqdalar. Bu jarayon esa global muammoga aylanmoqda. Chunki, turli xil davlat universitetlarida ustozlar o‘quvchilarga sun‘iy intallektdan foydalanmasliklari kerakligini uqtirishga urinishayotganini ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatishimiz mumkin.

Albatta, ular ham sun'iy intellektda foydalanishlari mumkin, ammo, qachon, qaysi paytta, nima uchun undan foydalanish kerakligini bilishlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sun'iy intellekt hozirgi zamonaviy hayotimiz uchun o'z o'rnida yangi va innovatsion loyihalar sari yo'l ochmoqda deya olamiz. Biroq, boshqa tarafdin qarasaq u insonlar hayotiga keltirayotgan zararlarini ham inobatga olgan holda tegishli choralar ko'rishimiz darkor. Jumladan, ta'lim sohasida ustozlar yosh avlodlarga sun'iy intellektdan qay tarzda foydalanishni o'rgatishi va talabalar ham undan noto'g'ri foydalanish kelajakda juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushunib yetishlari lozim. Talabalar sun'iy intelaktdan ma'lumot olish va bilimni oshirish maqsadida foydalanishi kerak. Bundan tashqari, ular vaqtimni tejayman, ortiqcha mashaqqatdan xalos bo'laman deb o'zlarining ko'nikmalari, aql-idroki, tajribasi hamda farosati bilan hal qilinadigan masalalarni va topshiriqlani bajarishda sun'iy intellektdan foydalanmasliklari kerak. Shu kabi muammolar manashunday oqilona yo'llar bilan hal qilinsa va sun'iy intellektdan to'g'ri yo'lda foydalanilsa, oqibatda sun'iy intellekt yordamida insoniyat bundanda buyukroq yutuqlarga erishishi subhsiz, albatta..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Stuart Russell, Peter Norvig. Sun'iy intellekt: zamonaviy yondashuv (Artificial Intelligence: A Modern Approach). – Pearson Education, 2021.
2. O'tkirovna G. F. SUN'IY INTELEKT: INSONIYATNING DO 'STIMI YOKI RAQIBIMI? //YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 458-460.
3. Akbarova S. Importance of Developing Economic Competencies in Students //Economic Development and Analysis. – T. 2. – №. 11. – C. 73-78.
4. Alisher o'g'li S. S. SUN'IY INTELEKT VA UNING KELAJAGI //Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2025. – T. 49. – №. 1. – C. 146-148.